XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

Yangiobod tumani 131300, Yangiobod shaharchasi Mustaqillik shoh ko‘chasi 1-uy.
Tel: (72) 542-12-27

2023 - yil 29 - dekabr VI-65-176-3-54-K/23 Yangiobod tumani hokimligi

Yangiobod tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq Jizzax viloyati Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 01-20-08-01-33/430-sonli xatini inobatga olib 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq Yangiobod tumani mahalliy budjetining daromadlari 28 271,048 mln.so‘m, xarajatlari 73 848,054 mln.so‘m miqdorda, respublika budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan

transfertlar 49 233 006,0 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tumanning daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanlansin.

4. 2024-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari to‘liq tuman mahalliy budjetida qoldiriladi:

• jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

• jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

• mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

• suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

• noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

• yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

• yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

• benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

• qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish yig‘imi va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari);

• mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha o’tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq;

• foyda solig‘i;

• xarid qilinganlik uchun ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘im.

5.Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish uchun 2024-yilda ham qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkasidan kelib chiqib mahallalar kesimida hududning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga Xalq deputatlari tuman Kengashi viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentini belgilash huquqi saqlab qolinadi.

6.Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat G‘aznachilik boshqarmasi va tuman g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.Qonun hujjatlariga muvofiq, moliya yili davomida tuman mahalliy budjetini balanslashtirish jarayonida nazarda tutilmagan (hisobga olinmagan) soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlar kuzatilsa, ushbu tushumlar to‘lig‘icha viloyat mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

8.Tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari hamda respublika budjetidan tuman mahalliy budjetlariga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanning budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

9.Tumanning tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10.Tumanning tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. 2024-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 657.041 mln.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tumanning tuman budjeti parametrlarida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni,

shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

12. 2024-yil uchun tuman budjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘i miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

13.Tumanning tuman budjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar moliya yili davomida Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari asosida ishlatilishi belgilansin.

Kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish holatlari yuzaga kelganda tuman hokimligining qaror va farmoyishlari asosida ishlatilib keyinchalik Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borilsin.

14.Tuman mahalliy budjetining daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, tuman hokimligi viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflari bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish bo‘yicha murojaat qiladi.

15.Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tuman mahalliy budjeti ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

16.Tuman hokimligi tuman budjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

17.Budjet ijrosining ochiqliligini ta’minlash maqsadida:

Budjet mablag‘i taqsimlovchilari;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtiradi.

18.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev, tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi (T.Shodmonqulov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Suyunov)larga 2024-yildagi hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot

vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19.Mazkur qaror **“Yangiobod ovozi”** gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimlikning **yangiobod.jizzax.uz** rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20.Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

21.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **I.B.Qarshiboyev**

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangiobod tuman mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari rejasi

ming so‘mda

Tuman nomi	Jami daromad	shundan			
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	shundan	
				Tuman mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori
Yangiobod tumani	**28 271 048,0**	5 088 048,0	23 183 000,0	19 527 000,0	3 656 000,0

Xalq deputatlari Yangiobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
2-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qat’iy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiylashtirishdan tushum (Davlat ob’ekt-larini sotishdan tushum)
1	Yangiobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
3-ilova

Yangiobod tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Tuman nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlari	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Yangiobod tuman	**73 848 054,0**	19 527 000,0	5 088 048,0	49 233 006,0	**73 848 054,0**

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
4-ilova

Yangiobod tumani bo‘yicha 2024-yil yillik daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Manbalar nomi	2024-yil uchun Kontingent reja	shundan	
			tuman budjetiga	viloyat budjetiga
	Jami mahalliy budjet daromadlari	**24 018 000**	**19 527 000**	**3 656 000**
	Jami soliq tushumlari	**24 018 000**	**19 527 000**	**3 656 000**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	92 000	92 000	
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	1 704 000		1 704 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 854 000	12 854 000	
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	180 000	180 000	
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	835 000		
6	Aksiz solig‘i (benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz uchun)	253 000	253 000	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	418 000	418 000	
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 080 000	1 080 000	
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 194 000	1 194 000	
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 930 000	2 930 000	
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	445 000	445 000	
12	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	0		
13	Davlat boji	985 000		985 000
14	Jarimalar	646 000		646 000
15	Davlat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar	2 000		2 000
16	Xususiylashtirishdan tushum	120 000	60 000	60 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	21 000	21 000	
18	Yig‘imlar	259 000		259 000
19	Boshqa tushumlar	0		

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yilgi Yangiobod tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Tuman byudjeti
	Xarajatlar miqdori, Jami	**73 848 054,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**73 848 054,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**11 974 548,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 974 548,0**
2.	**Tibbiyot birlashmasi**	**24 855 897,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**24 855 897**
3.	**Madaniyat bo‘limi**	**2 216 497,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 216 497,0**
	shundan:	
	madaniyat bo‘limini saqlash xarajatlari	596 290,0
	musiqa maktabi	1 620 207,0
4.	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**3 425 356,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 425 356**
	shundan:	
	Yoshlar agentligi tuman bo‘limi	1 049 486,0
	Sport maktabi	2 375 870,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 858 114,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 858 114,0**
	shundan:	
	Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
	Obodonlashtirish boshqarmasi	6 858 114,0
	Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	0
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
6.	**Soliq inspeksiyasi**	**2 443 750,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 443 750,0**
	shundan:	
	Soliq inspeksiyasi	2 443 750,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

7.	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 047 509,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 047 509,0**
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 047 509,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 412 206,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 412 206,0**
	shundan:	
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 839 068,0
	Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bulimi	573 138,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Tuman hokimiyat organlari**	**12 588 720,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**12 588 720,0**
	shundan:	
	Tuman hokimligi	2 434 865,0
	Xalq qabulxonasi	52 781,0
	Hokim yordamchilari	811 282,0
	Xalq deputatlari tuman Kengashi	230 532,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	7 486 908,0
	Ijtimoiy moslashuv markazi	57 789,0
	Zaxira jamg‘armasi	657 041,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	331 891,0
	Axborot kutubxona markazi	525 631,0
10.	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**1 025 457,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 025 457,0**
	shundan:	
	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi	261 761,0
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	763 696,0

Xalq deputatlari Yangiobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-65-176-3-54-K/23-son qaroriga
6-ilova

Yangiobod tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/p	Tuman nomi	Miqdor
1	Yangiobod tumani	**266 000,0**